



**Davlat
Solliq
Xizmati**



Solliq nizolarini sudgacha hal qilish yuzasidan tushuntirish bo‘yicha QO‘LLANMA



TOSHKENT - 2023 y.



REJA:

1

Soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqish nazariyasi

2

Shikoyatni berish tartibi va muddatlari

3

Soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqish amaliyoti (234-235 moddalari)



Soliq nizolarni hal etish

Sudgacha

- ✓ sud xarajatlari va davlat boji mavjud emasligi;
- ✓ soliq nizolari operativ hal etilishi;
- ✓ shikoyatni oson rasmiylashtirilishi;
- ✓ hamkorlik munosabatlar (*Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori*);
- ✓ soliq organlarining ish sifatini oshirish va kamchiliklarni to'g'rilash;
- ✓ soliq to'lovchilarning ishonchini qozonish.

Sud tartibida

- ❑ sud xarajatlari va davlat boji mavjudligi;
- ❑ o'rta va uzoq muddatlarda soliq nizolari hal etilishi (*hal qiluv, apellyatsiya instansiyasi sudining, kassatsiya instansiyasining qarorlari*);
- ❑ shikoyatni murakkab rasmiylashtirilishi;
- ❑ sud tartibida ishlarni ko'pligi;
- ❑ ziddiyatli munosabatlar;
- ❑ Soliqlarni hisoblanishidagi holatlar.



Soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqishda

- ✓ Sudlarga yuklamaning kamayishi, sababi sudga soliq to'lovchilardan kelib tushadigan arizalar soni kamayadi;
- ✓ soliqqa oid nizolarning aksariyati suddan tashqari tartibda ko'rib chiqiladi va faqat nizo **kelishuv yo'li** bilan hal qilinmagan taqdirda u sudga uzatiladi;
- ✓ sudlar kelib tushgan **ishlar** ustida ancha samarali ishlay boshlaydi;
- ✓ yuqori turuvchi soliq organlari shikoyatlarni tezkor tarzda ko'rib chiqadi. *(Sudlarda nizo **yillar davom etadi**)*

- ✓ Shakllangan amaliyotga ko'ra, soliq to'lovchilar yuqori turuvchi soliq organining xolis bo'lishi dargumon, u soliq to'lovchini yonini olishdan ko'ra ko'proq "idoraviy birdamlik" tamoyiliga tayangan holda soliq organiga yon bosadi, deb hisoblashadi;
- ✓ Shikoyatning o'zi esa nizoli qaror chiqargan soliq organiga yuboriladi va aynan shu organ uni yuqori turuvchi soliq organiga jo'natadi.



Shikoyatni berish huquqi



O‘ziga nisbatan soliq auditi o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va (yoki) tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e‘tiboran **o‘n kun** ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e‘tirozlarini taqdim etishga haqli. *(156-moddada 12-qismi)*



Har bir shaxs soliq organlarining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar ushbu shaxsning fikriga ko‘ra bunday hujjatlar, harakatlar (harakatsizlik) uning huquqlarini buzsa, shikoyat berish huquqiga ega. *(230-moddada)*





Shikoyatning shakli va mazmuni

233-modda



Shikoyat va unga ilova qilinadigan hujjatlar soliq organiga yozma yoki elektron shaklda yuborilishi mumkin.



Shikoyat uni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.



Shikoyatda telefon raqamlari, elektron pochta manzillari va shikoyatni o'z vaqtida ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.



Vakil tomonidan berilgan taqdirda, shikoyatga ushbu vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.



Shikoyatga shikoyat berayotgan shaxsning dalillarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi mumkin.



Shikoyatni berish tartibi va muddatlari

232-modda



Soliq qo'mitasiga qarorlar ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi **(Soliq boshqarmalari)** orqali beriladi.

Qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi **(Soliq boshqarmalari)** bunday ariza kelib tushgan kundan e'tiboran **uch kun** ichida uni Soliq qo'mitasiga barcha materiallar bilan birga yuborishi shart.

Soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat shaxs o'z huquqlari buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran **bir oy** ichida berilishi mumkin.

Muddat uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, ushbu muddat shikoyat berayotgan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha Soliq qo'mitasi tomonidan tiklanishi mumkin.



Shikoyatni ko'rib chiqish muddatlari

*Soliq tekshiruvlari bo'yicha ko'rib chiqish muddati **1 oy**;

*Ko'rib chiqish natijasi yuzasidan soliq organi qarori shikoyat beruvchiga 3 kun ichida yetkaziladi.

*Shikoyatni ko'rmasdan qoldirish to'g'risida qaror qabul qilinganda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran **uch kun** ichida yozma shaklda xabar beriladi.



Zarur hollarda ko'rib chiqish muddati rahbar ruxsati bilan **15 kungacha** uzaytirilishi mumkin.



Shikoyatni ko'rib chiqish davomida uni bergan shaxs o'z dalillarini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni shikoyat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar taqdim etishga haqli.



Shikoyatni ko'rib chiquvchi soliq organi o'z tashabbusiga ko'ra yoki murojaat qiluvchining iltimosiga ko'ra shikoyatni eshitishni tashkil etishi mumkin.



Agar shikoyat bergan shaxs shikoyat bo'yicha qaror qabul qilinishiga qadar ushbu shikoyatni ko'rib chiqish davomida taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlarni qarori ustidan shikoyat berilgan soliq organiga o'z vaqtida taqdim etish mumkin bo'lmagan sabablar bo'yicha **tushuntirishlarni taqdim etgan bo'lsa**, bu qo'shimcha hujjatlar yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko'rib chiqiladi. Mazkur qoida ushbu Kodeksning 159 yoki 166-moddalarida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat berilganda qo'llaniladi.



Shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha

235-modda

Shikoyatni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi.

Shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldiradi

Soliq organining normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatini bekor qiladi.

Soliq organining qarorini to‘liq yoki qisman bekor qiladi.

Soliq organining qarorini to‘liq bekor qiladi va ish yuzasidan yangi qaror qabul qiladi

Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) noqonuniy deb e‘tirof etadi va ishning mohiyati bo‘yicha qaror chiqaradi



Shikoyatni ko'rmadan qoldirish tartibi

234-modda

- *Shikoyat imzolanmagan bo'lsa;
- *Shikoyat berish muddati o'tgan bo'lsa;
- *Shikoyat to'liq yoki qisman chaqirib olingan bo'lsa;
- *Ilgari aynan o'sha asoslar bo'yicha shikoyat berilgan bo'lsa;
- *Ilgari shikoyat qilingan qarori ustidan berilgan bo'lsa;
- *Shikoyat qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida yoki soliq to'lovchi sudga shikoyat masalasi bo'yicha murojaat qilganda berilgan bo'lsa.



Shikoyatni ko'rmadan qoldirish shaxsning shikoyat berish uchun belgilangan muddatlarda shikoyat bilan takroran murojaat qilishiga monelik qilmaydi.



**Soliq xizmati — insofli soliq
to'lovchilarning ishonchli hamkori!**

**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**